



**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIV  
KOMPETENSIYALARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA  
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

**Toshpo‘latova Mahliyo Sunnat qizi**

**Turobova Sabohat Yo‘ldoshovna**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda ta‘lim sohasida olib borilayotgan ishlar, kreativlikning inson hayotidagi o‘rni, kompetensiyaning mazmun-mohiyati, integratsion yondashuv asosida tadqiqotlar olib borgan olimlarning ilmiy izlanishlari haqida, umuman olganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ kompetensiyalarini integratsion yondashuv asosida tashkil etishning ahamiyati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, integratsiya, fanlararo aloqadorlik, integrativ yondashuv.

Jahonda globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan transformatsiya davrida ta‘lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etmoqda. Ta‘lim muammolari bo‘yicha butunjahon Forumida qabul qilingan 2030-yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyada “...Barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta‘lim olishga imkoniyat yaratish...” ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ kompetensiyalarini shakllantirish, ularda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimning imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo qiladi. Mazkur dolzarb masalani qamrab olgan o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyat siyosiy iqtisodiy-ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan islohotlar, innovatsion, integratsiyalashgan ilmiy loyihalar, xalqaro tadqiqotlar keng miqyosda amalga oshirib kelinmoqda. Shu o‘rinda yurtboshimizning: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unitmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin.

Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta’kidladi Prezidentimiz.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son “Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida “Prezident maktablarini ochish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ham ta‘lim tizimimizga katta, yangi va innovatsion o‘zgartirishlar kiritilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ta‘limning barcha sohalarida yangidan-yangi innovatsion g‘oyalar ilgari surilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqish uchun barcha kuch va g‘ayrat savarbar qilinmoqda hamda o‘sha davlatlar tizimidan andozalar qo‘llanilmoqda. Bu esa ta‘lim tizimimizda yangicha terminlarning ham paydo bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Misol uchun; kreativlik, integratsiya, kompetentlik, intensiv ta‘lim, avtodidaktizm, interfaol, empatiya va boshqalar. Bu zamonaviy chetdan kirib kelgan so‘zlarning barchasi ayni bir vazifani bajaradi va ta‘lim oluvchilarning bilim olishida samarali natijalarga erishishiga imkon yaratadi. Hozir biz ayni kreativlik so‘ziga to‘xtalmoqchimiz. Chunki bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda kreativlik eng asosiy bo‘g‘in hisoblanib kelmoqda. Usiz yangi g‘oyalar, yangicha qarashlar umuman olganda, yaratishlar bo‘lmaydi. Kreativlik so‘zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo‘llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta‘riflagan[9].

Kreativlik (lot. creatio - yaratish, vujudga keltirish) - bu insonning noodatiy g‘oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an’anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo‘lgan qobiliyatidir.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo‘yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan.

Bolalarda kreativlikni oshirishda quyidagilarga e‘tibor berish zarur:

- 1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish;



- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Yurtimizda ta'lim-tarbiya sifati, jumladan, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, o'quv uslubiy ta'minotini mustahkamlashga qaratilgan islohatlar natijasida boshlang'ich sinflarda ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish, ta'lim mazmunini ilmiy tashkil etish va fanlarni o'zgartirishda kompetensiyadan foydalanish ta'lim samarasini yuksaltirmoqda. Mamalakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va islohatlar, tabiiyki, ta'limda kompetentli yondashuvni talab etmoqda. Shu o'rinda kompetensiya tushunchasining mazmuniga to'xtalib o'tsak[10].

Kompetensiya – fan bo'yicha egallagan nazariy bilim ko'nikmalarni, amaliy ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Boshlang'ich ta'limda kreativ kompetensiyani shakllantirish va uni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ kompetensiyalarini takomillashtirishda integratsiya yo'lidan, ya'ni, integrativ yondashuvdan foydalanilib kelinmoqda[8].

Integrativ yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish muammolari yuzasidan R.Safarova, A.Musurmonov, P.Musayev, A.Ch.Choriyev, A.A.Salomov, B.Abdullayeva kabi o'zbek olimlari ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu va boshqa tadqiqot ishlarida fanlararo aloqadorlikning turli yo'nalishlari va tamoyillari, ularning o'quv jarayonida muayyan fanlarni o'zlashtirishda qo'llanilishi, o'quv fanlararo aloqadorlik asosida tanlangan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar ilmiy-amaliy jihatdan hal etilgan. Jumladan, V.N.Fedorova o'z tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini ko'rsatib, o'quv fanlararo aloqadorlik tabiiy fanlar bilan atrof-muhit hodisalarini o'zaro aloqadorlikda va izchillikda ifodalashning didaktik sharti sifatida namoyon bo'lishi asoslarini tarkib toptirishning pedagogik, psixologik, metodik jihatlari tadqiq qilingan[7].

Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolalarga matematika, o'qish, tabiat haqidagi boshlang'ich tushunchalarni va yana ko'pgina narsalarni o'rgatadi. O'qituvchi o'zining kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o'qituvchi (ta'lim berish ) va o'quvchi (ta'lim olish )harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Dars



jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash asosida o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog'liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi, masalan, o'qish darslarida qish fasliga doir she'r yoki matni o'qishdan oldin o'qituvchi mavzuni tabiatshunoslik bilan bog'liqligi haqida "tabiatshunoslik darsida biz qish faslida bo'ladigan tabiat hodisalarini, undagi o'zgarishlarni o'rganadilar. Ushbu she'r (matn)da ham xuddi shu holat tasvirlangan" degan fikr bilangina cheklansa, unda o'quv fanlari o'rtasidagi bunday aloqadorlik faqat tashqi xususiyatga ega bo'ladi, tasavvurlar va reproduktiv harakatlar darajasida qoladi. Boshlang'ich ta'limdagi o'qish darslarini ona tili, odobnoma, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik, mehnat fanlari bilan bog'lab o'quvchilarning tassavurlarini boyitish joiz. Chunki bunday darslar o'quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi[6].

Xulosa qilib aytganda, o'quv fanlariaro aloqadorlik hodisasi, ya'ni integratsion yondashuv murakkab va serqirra didaktik jarayondir. Fanlararo aloqadorlikning falsafiy asosi, fanlar va ilmiy tushunchalarning o'zaro bog'langan holda rivojlanishi hamma zamonda ta'limning asosini tashkil etadi va kreativ kompetensiyalarni takomillashtiradi, shu bilan birga, ta'limning taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan" yig'ilishdagi nutqidan. T. 2017y
2. N.Muslimov "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv qo'llanma
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua - Toshkent. 2016
4. Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. -Toshkent, 2003. - 276 b.
5. R.A. Mavlonova va boshq. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., TDPU, 2007.
6. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDA "YOLG 'ON SO 'ZLASH VA YOLG 'ON QASAM ICHISH" YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 505-510.



7. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 511-516.
8. Ismoilova Durdona G'Ulom Qizi (2024). TALABALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARINING TUTGAN O'RNI. *Research Focus*, 3 (12), 109-114. doi: 10.5281/zenodo.14532269
9. Shavkatovna, X. M. (2025). Pedagogik nazorat va baholash. *ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI*, 2(6), 124-126.
10. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.